

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor
I. Bekpulatov
28 10 2025 y.

13.00.08-maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
IXTISOSLIGI BO‘YICHA KIRISH IMTIHONI DASTURI

Tuzuvchilar:

N.H.Oripova P.f.d., professor
A.E.Xo‘jaqulov P.f.f.d., professor

Dastur Qarshi davlat universitetining 30 10. 2025 dagi
Majlisida tasdiqlangan(bayonnoma №) 2

Qarshi - 2025 y.

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
ixtisosligi bo'yicha kirish imtixononi
D A S T U R I

KIRISH

Respublikamizda maktabgacha ta'limga yildan-yilga e'tibor kuchayib borib, u ta'lim tizimining asosiy bug'ini sifatida namoyon bo'lmoqda. Albatta, Prezidentimiz va hukumatimiz ko'magida maktabgacha ta'lim keyingi yillarda o'zining nufuzini ancha yuqoriga ko'tarib oldi. Bu e'tiborning samarasi o'laroq Respublikamizda maktabgacha ta'limning huquqiy asoslari yangidan yaratildi va uning moddiy texnik ba'zasi tubdan zamonaviy qiyofa kasb etdi.

Ushbu dasturda maktabgacha ta'limning meyoriy asoslari, mutaxassisning sohada o'z kasbiy faoliyatini rejalashtirishi, maktabgacha ta'limning asosiy tamoyillari, maktabgacha ta'lim pedagogikasiga qo'yiladigan asosiy talablar, maktabgacha ta'limning mazmuni, ilmiy-tadqiqot metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish, maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash, maktabgacha ta'limning uzviyligi va uzluksizligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tarbiya jarayonini tashkil etish malakalariga va bir qator boshqa qonuniyatlar, muammolar, ularning yechimiga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar ham nazarda tutildi.

Dastur mazmunidan ko'rinib turibdiki, imtihon topshiruvchi maktabgacha ta'limning amaliy va nazariy fundamental yo'nalishlaridan puxta bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi.

**KIRISH IMTIXONI MUNDARIJASI VA
MAZMUNI**

I. Maktabgacha ta'limning meyoriy asoslari

1. O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya haqida.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning mazmuni va mohiyati.
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartining maqsadi va vazifalari.
4. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari.
5. Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar
6. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi
7. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish
8. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish
9. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish rejimi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi ПҚ-3955-son qarorining mazmuni va mohiyati.

11. Мактабгача таълимнинг наъмунавий ўқув режасининг тузилиши.

II. Matematik tasavvurlarni shakllantirish.

1. Matematik tafakkurni rivojlantirish jarayonida bolalarda refleksiv fikrlashni shakllantirish.
2. Guruhlar kesimida bolalarda miqdor va son tushunchalarini shakllantirish yo'llari.
3. Taqqoslash, guruhlash va tasniflash amaliyotlarining matematik tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni.
4. Matematik savodxonlik tushunchasining zamonaviy talqini va uning komponentlari.
5. Matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida ontogenetik yondashuv.
6. Raqamli ta'lim muhiti sharoitida matematik kompetensiyalarni adaptiv rivojlantirish.
7. Matematik tushunchalarni o'zlashtirishda semantik tahlil tushunchasi.
8. Matematik tilni o'rgatish ("ko'p-kam", "uzun-qisqa", "teng-teng emas") jarayonida til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlanash.
9. Maktabgacha ta'limda matematik modellashtirish faoliyati orqali bolaning abstrakt tafakkurini rivojlantirish mexanizmlari.
10. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik rivojlantirish jarayonida mantiqiy fikrlashini loyihalash.
11. Bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasini o'qitishning tashkiliy shakllari.
12. Matematik tafakkur va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlik.
13. Matematik tasavvurlarni shakllantirishda pedagogning metodik kompetensiyasi.

III. Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyasi

1. Tabiatda bolalar mehnati va ularni tashkil etish texnologiyasi.
2. Oddiy tajribalar ularning mazmuni, bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. Tabiat bilan tanishtirish jarayonida sensor-tasavvur va idrok faoliyatining o'zaro aloqasi.
4. Maktabgacha ta'limda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida integrativ yondashuv.
5. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda kuzatish metodining bosqichlari va pedagogik ahamiyati.
6. Tabiiy obyektlar va hodisalarni o'rgatishda STEAM texnologiyasini qo'llash.
7. Bolaning tabiat haqidagi elementar ilmiy tasavvurlarini shakllantirishda

tajriba-metod (eksperiment)ning roli.

8. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida virtual laboratoriyalar va raqamli simulyatsiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.

9. Fasl o'zgarishlarini o'rgatish jarayonida bolalarda vaqt, ketma-ketlik va sabab-oqibat tushunchalarini shakllantirish metodikasi.

10. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tabiat burchagini tashkil etishning tarbiyaviy va o'quv-metodik ahamiyati.

11. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida interaktiv o'yinlar va didaktik o'yin texnologiyalarining roli.

12. Tabiat bilan tanishtirish jarayonida pedagogning ekologik kompetensiyasi va pedagogik refleksiya o'rtasidagi bog'liqlik.

IV. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyasi

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish jarayonining asosiy bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari.

2. Bolaning nutqiy faoliyatida faol va passiv lug'at o'rtasidagi farq.

3. Fonematik eshituv va artikulyatsion malakalar nutqni shakllantirish.

4. Matn tuzish (bog'lovchi nutq) ko'nikmasini shakllantirishda ko'rgazmalilik va tasviriy vositalardan foydalanish.

5. Bolalarda grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish aspektlari.

6. Nutqni rivojlantirishda multimedia vositalari va raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari.

7. Bolaning nutqiy tafakkurini rivojlantirishda suhbat va savol-javob metodlarining psixologik-pedagogik asoslari.

8. Nutqni idrok etish (receptiv nutq) bilan nutqni ifodalash (ekspressiv nutq) o'rtasidagi bog'liqlik.

9. Logoritmik mashg'ulotlar va ritmik o'yinlar bolalarning talaffuz, ohang va nutq tempi.

10. Bolalar nutqini o'stirishda pedagogik diagnostikaning o'rni va ahamiyati.

V. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

1. Muammoli ta'lim texnologiyasining bosqichlari

2. Kreativ metodlar va ularning turlari

3. Pedagogik texnologiyaning aspektlari

4. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda kommunikativ metodlardan foydalanish yo'llari.

6. "Pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyati va an'anaviy ta'lim metodikasidan farqi.

7. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.

8. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida o'qituvchi faoliyatining asosiy

tamoyillari.

9. Kreativ pedagogika konsepsiyasining pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi o'rni.

10. Refleksiv yondashuvning o'qituvchining kasbiy rivojlanishidagi ahamiyati.

11. Pedagogik texnologiya loyihalash bosqichlari (diagnostika, maqsad, natija, baholash) o'rtasidagi uzviy bog'liqlik.

12. Kognitiv va metakognitiv strategiyalarning ta'lim jarayonini individuallashtirishdagi ahamiyati.

13. Kasbiy "burnout" (emotsional charchash) holatini oldini olish uchun pedagogik texnologiyalar va mahorat elementlaridan foydalanish imkoniyatlari.

14. Pedagogik kompetentlikning tuzilishi va mazmuni

15. Kasbiy kompetentlik sifatlari.

16. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

17. Pedagogning o'z ustida ishlash modeli

18. Pedagogning individual rivojlanish dasturi

19. Pedagogning kommunikativ kompetentligi

20. Ta'lim jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish.

21. Zamonaviy pedagog imidji

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma'qullangan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 2019-yil 8- maydagi PQ – 4312 –son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da 2018-yil 30-sentabr PQ-3955-son qarori.
4. Деркач.А.А. Методолого - прикладные основы акмеологических исследований. –М.: 1999 г.
5. Saidahmedov. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: ОПИ, 2003
6. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – Т.: "Fan va texnologiya" nashriëti,. 2013 y.
7. Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" Т.: Fan va texnologiyalar 2009 y. O'quv qo'llanma

8. Орипова Н.Х. Педагогик касбий компетентлик ва креативлик. Дарслик. Қарши: Насаф, 2021 й.
9. Kenjayeva D.K. Pedagogik akmeologiya. Qarshi.. "LESSON PRESS" nashriyoti. 2022 y.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi yozma ravishda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Talabalar javob yozishi lozim bo'lgan variantlarda 5 tadan savol bo'lib, ular mutaxassislikning tayanch fanlari - optika, molekulyar optika, molekulyar spektroskopiya fanlari asosida tuzilgan va har bir savolning javobiga maksimal 20 balldan ajratiladi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Yozgan javobiga qo'yiladigan talablar
17,0-20,0	Qo'yilgan savolga to'liq javob bergan. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
13,9-16,9	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.
10,7-13,8	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-10,6	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.